

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda **65 781,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,5 %ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 110,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 %ga yetdi

Yalpi hududiy mahsulot


(2023- yil yanvar-dekabr holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2022- yil nisbatan, % hisobida
	2022-yil	2023-yil	
Yalpi hududiy mahsulot, jami	56 315,9	65 781,0	105,5
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 561,5	64 160,3	105,4
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 754,4	1 620,7	108,7
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 561,5	64 160,3	105,4
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 474,8	22 746,2	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	14 399,8	17 295,5	107,5
 sanoat	10 769,5	13 005,3	106,2
 qurilish	3 630,3	4 290,2	111,6
 Xizmatlar	20 686,9	24 118,6	105,3
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 081,6	5 034,3	111,3
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	3 196,7	3 911,3	112,7
 boshqa xizmatlari	13 408,6	15 173,0	101,6

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘rish sur‘atlari YaHM o‘rishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rish sur‘ati- 103,9 %, (YaHM tarkibidagi ulushi- 35,5%), sanoat- 106,2% (20,3%), qurilish 111,6 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (37,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar- 111,3 % (7,8%), tashish va saqlash, axborot va aloqa- 112,7 % (6,1 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 101,6 % (23,6 %)ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,5 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,5 %ni, sanoat tarmog‘i 20,3 %ni, qurilish 6,7 %ni va xizmatlar sohasi 37,5 %ni tashkil qildi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 37,5 %ni tashkil etdi va 2022- yil (37,9 %) bilan taqqoslanganda 0,4% punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,8 %ni (2022- yil- 7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,1 %ni (5,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,6%ni (24,5 %) tashkil etdi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (yanvar-dekabr, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 16 367,9 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (14 306,8 ming so'm) mos davriga nisbatan 3,3 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 69,5 %ni tashkil qildi.


2022-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)






Sanoat



Xizmatlar



2023- yilning yanvar-dekabrida YaHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 113,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,4 % qayd etildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 69,5 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 68,9 %)ni tashkil qildi.

2023

• 69,5


2022

• 68,9

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar-dekabr holatiga

Hududlar	YaHM mlrd. so'm			Aholi jon boshiga, ming so'm		
	2022- yil	2023 - yil	%	2022- yil	2023- yil	%
O'zbekiston Respublikasi	896 617,9	1 066 569,0	106,0	25 151,9	29 291,4	103,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30 117,6	32 916,1	103,5	15 348,1	16 545,8	102,1
Andijon	56 488,3	68 223,4	105,1	17 179,6	20 313,6	102,9
Buxoro	46 126,2	53 232,3	105,2	23 140,6	26 262,9	103,4
Jizzax	27 545,4	33 323,3	105,0	18 873,2	22 342,1	102,8
Qashqadaryo	49 692,3	58 404,5	105,0	14 423,2	16 585,1	102,7
Navoiy	68 799,4	81 943,2	105,8	65 855,6	76 913,1	103,7
Namangan	40 565,1	47 112,6	105,4	13 684,5	15 539,5	103,1
Samarqand	61 627,7	74 115,3	105,6	15 124,1	17 801,6	103,4
Surxondaryo	34 385,3	40 909,8	104,4	12 392,0	14 395,7	101,9
Sirdaryo	18 210,8	21 549,9	105,9	20 516,9	23 804,2	103,8
Toshkent v.	94 789,9	107 918,1	105,0	31 952,4	35 703,7	103,1
Farg'ona	56 315,9	65 781,0	105,5	14 306,8	16 367,9	103,3
Xorazm	32 541,0	36 916,5	104,4	16 764,2	18 674,9	102,5
Toshkent sh.	149 646,2	181 859,6	109,3	51 435,4	60 648,2	106,1